Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

5. Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш асоси сифатида миллий мақсадларга (вазифалари ва индикаторлари) эътибор қаратиш ва уларни ўзаро боғлиқ ҳолда амалга киритиш бўйича тадқиқот ўтказиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. 2022 йил 28 январь. -www.lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сон Фармони. 2019 йил 23 октябрь. – www.lex.uz

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-92-сон Қарори. // Халқ сўзи, 2018 йил 8 май.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTER FAOLIYATINI O‘ZIGA XOS JIHATLARI

O.X.Maxmudov
TDIU Andijon fakulteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrasi” proofessori i.f.d
I.Xolmirzayev
Andijon mashinasozlik instituti tadqiqotchisi
X. Sarimsaqov
TDIU Andijon fakulteti BIA 60/23 talabasi

Respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishida qishloq xo‘jaligi bugungi kunda tarkibiy jihatdan o‘zgarib bormoqda. Qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlanishi ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarining bir-biri bilan o‘zaro ta’siri orqali sodir bo‘ladi**. Bunday ta’sir uzviy bog‘langan t**exnologik jarayonlarga xosdir. Insoniyat tarixi va taraqqiyoti bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hozirgi kunda ham alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy sohada ham, jamiyatning boshqa sohalarida qishloq xo‘jaligi ijtimoiy rivojlanishning eng muhim sohalaridan biri bo‘lib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ayni paytda, Respublikamizdagi tarkibiy qismi hisoblangan qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini ta’minlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohalari integratsiyasini rivojlantirishni talab etmoqda.

Published: 17.05.2024
Cite this article: O.X. Maxmudov, I. Xolmirzayev, X. Sarimsaqov (2024). O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda agroklaster faoliyatini o‘ziga xos jihatlari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/71
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida: kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish nazarda tutilgan bo‘lib bunda agrosanoat majmuiga tegishli barcha vazirlik va idoralar axborot tizimlarining Yagona dastur bilan integratsiyasini ta’minlashni keltirib o‘tilgan[2].

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ekinlarni joylashtirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni nazorat qilish tizimidan boshlab fermer va dehqon xo‘jaliklari mahsulotlarini qayta ishlab chiqish, ularni iste’molchilarga yetkazib berish xizmatlari soxalarini rivojlantirish qishloq xo‘jaligi korxonalari integratsiyasini asosiy jarayoni hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlat qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini tartibga solish va balanslashtirish bo‘yicha mustahkam huquqiy-me’yoriy mexanizmlarni tashkil etdi. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "fuqarolik kodeksi", "yer kodeksi", "soliq kodeksi"," fermer xo‘jaligi to‘g‘risida"," dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida"," tadbirkorlik faoliyati mustaqilligini kafolatlash to‘g‘risida", va boshqalar kirishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining "fermer xo‘jaligi to‘g‘risida" gi Qonuni 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan. Bu Qonunga 10 marta o‘zgartirishlar kiritilgan (2001, 2004, 2006, 2007, 2008, 2009, 2011, 2012, 2013 va 2015yy).

Ayni paytda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi hamkorligi sohasida huquqiy-me’yoriy baza shakllantirildi. Jumladan, "hamkorlik to‘g‘risida" gi, "qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari) to‘g‘risida" gi va boshqa qonunlarni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, avvalo, shu tarmoq ichidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradigan klasterlarni shakllanishi amalga oshirildi. Shuning uchun iqtisodiyotni innovasion taraqqiy ettirishda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, klaster nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanmoqda. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va unga xizmat ko‘rsatuvchi agrosanoat majmuasi sohalari o‘rtasida xo‘jalik aloqalarining tobora rivojlanib va mustahkamlanib borishi ta’sirida tarmoqlararo integratsiyalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish usullaridan biri sifatida klaster usulidan keng foydalanadi. Klaster strategiyasi Yevropa Ittifoqi tomonidan keng targ‘ib qilinadi. Yevrokomissiya ittifoq hududida klaster rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari

[2] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4575.28.01.2020 ҚАРОРИ. ПҚ-4575.28.01.2020 Ўзбекистон Республтикасинин қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси

to‘g‘risida”gi farmoni bilan paxta-to‘qimachilik klasterlarini o‘rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan[3]. 2018 yil 25 yanvarda esa Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[4]. Mazkur qarorga muvofiq respublika hududlarida 16 ta paxta-to‘qimachilik klasteri tashkil qilinib, ularga fermer xo‘jaliklarining qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydoni biriktirildi. Bunda:

1. Davlat xo‘jaliklari, jamoa xo‘jaliklari va boshqa korxonalar birgalikda hamkorlikni amalga oshirish uchun ixtiyoriy ravishda birlashadilar.
2. Xo‘jaliklarning ishlab chiqarish tuzilmasi va iqtisodiyotini hisobga olgan holda tashkiliy shakllar, yo‘nalishlar va ishlar ketma-ketligini tanlashga ilmiy yondashuv amalga oshiriladi.
3. O‘zaro xo‘jalik birlashmalari tarkibiga kiruvchi barcha korxona va tashkilotlarning iqtisodiy mustaqilligi to‘la saqlanib qoladi.
4. Asosiy shartlardan biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rivojlantirishda ham, umuman assosiatsiya hamda har bir korxonaning barcha ishtirokchilarning moddiy manfaatidir.
5. Katta hajmda mahsulot ishlab chiqarish va sotishni ko‘paytirish, ularning sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.
6. Birlashmalar va korxonalar faoliyatini boshqarish demokratik markazlashuv tamoyillariga asoslanadi.[5]

Klaster strategiyasi jozibadorligi, yo‘nalishlarning turli-tumanligi bois innovasion klasterlarni davlatning o‘zi shakllatirishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga ayni paytda qishloq xo‘jaligi korxonalarining integratsiyalushuvi bilan bog‘liqdir.

«Integratsiya» atamasi Farbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yarata boshlaganida, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta’minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish vaqtida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi taromoqlarini integratsiyallashuvi ularning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda agroklasterlarni rivojlanishi uchun integratsiyallashuvida ularning o‘ziga xos xusuiyatlarini inobatga olish zarur deb xisoblaymiz. .

Bulardan biri, bu hududning joylashuvi , shu hududda resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi hisobga olinib, klasterlarni rivojlanishiga keng imkon

[3] Ш.Мирзиёев. Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ 5285 сонли фармони 14.12.2017 й.

[4] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 744-сон 19.09.2018й. Қарори пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришларини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида

[5] Тошматов, Р. Х. Фермер хўжаликлари кооперацияси ва бозор инфратузилмалари ривожланишини бошқариш. Номзодлик диссертаияси, Ташкент.2009й

yaratiladi. Shu hududda agroklasterlarni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan logistika, tashkiliy boshqaruv, innovasion va texnologik omillarni qamrab olish darajsi kiradi. Bu turli tashkilotlarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini (xarajatlarni taqsimlash, soliqni optimallashtirish, innovatsiyalar) boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratilishini talab etadi.

Qishloq hududlarini ijtimoiy rivojlantirishi uchun imkon yaratiladi. Klasterlarni rivojlanishi bilan hududning mehnatga layoqatli mehnat resurslari ish bilan ta’minlanadi. Shu bilan birga hududning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlanishini o‘z ichiga oladi.

Klasterlarni yaratishda tizimliylikka asoslangan . Klaster tuzilmasida turli xo‘jalik sub’yektlarining o‘zaro bog‘ligi bilan har bir xo‘jalik sub’yekti tashkiliy –iqtisodiy faoliyatini o‘zi boshqaradi. Kichik va o‘rta agrobiznesning saqlanib qolishi va rivojlanishining barqarorligi, iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida kafolatlar asosida kredit olish imkoniyati yaratiladi.

Korxonalarning zanjirli bog‘liqligi asosida infratuzilma ob’yektlaridan samarali foydalanish imkoniyatini paydo bo‘ladi. Korxonalarga investisiyalarni jalb etishda investisiya dasturlari va loyihalarda erkin ishtirok etish imkoni yaratiladi.

Ushbu omillardan kelib chiqib, agroklasterlani rivojlanishi natijasida erishiladigan natijalarga V. A Kundius quyidagicha fikr bildiradi”.... agrosanoat majmuasidagi klasterlar hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning ijtimoiy muammolarini hal etish orqali biznes bilan o‘zaro hamkorlik qilish, vertikal tashkil etilgan biznes guruhlariga qaramlikni kamaytirish uchun qulay vositadir.”[6]

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, tadbirkorlik yuridik shaxs yoki to‘g‘ridan – to‘g‘ri jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirokor) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin amalga oshiriladi. Shunga asoslangan holda klasterlar tarkibidagi xo‘jalik sub’yektlari biznesda erkin faoliyat yuritish tizimliyligi yaratildi.

Qishloq xo‘jaligi klasterining iqtisodiy o‘zagi odatda ishlab chiqarish faoliyati jarayonida o‘zining istiqbolliligini, mintaqa uchun ahamiyatini va raqobatbardoshligi oshishini isbotlagan yirik sanoat korxonasidan iborat bo‘ladi. Yadro atrofida o‘rta va kichik korxonalar, yetkazib beruvchilar va infratuzilma jamlangan bo‘linmalardan tashkil topadi[7].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi korxonalari integratsiyasi,ya’ni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash soxa yo‘nalishlari bo‘yicha tizimlashishi natijasida agroklasterlarni o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu sinergetik samaraga erishish hisoblanadi. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoatining mutanosib rivojlanishini, mahsulotlarni saqlash va ularni sotishni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantiruvchi

[6] Кундиус В. А. Формирование кластеров на селе базис инновационного развития агропромышленного производства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2012. № 2. С. 56–60.

[7] Глотко А. Модель агропромышленного кластера региона // АПК: экономика, управление. 2013.

harakatlantiruvchi kuchga aylantiradi. Natijada nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash, balki xomashyodan oqilona foydalanish, uni chuqur qayta ishlashni ta’minlash va oziq-ovqat tovarlari turini kengaytirish uchun ham shart-sharoitlar yaratiladi. Bularning barchasi qishloq xo‘jaligi integratsiyasini samarali rivojlanishi natijasida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глотко А. Модель агропромышленного кластера региона // АПК: экономика, управление. 2013. №.
2. Тошматов, Р. Х. Фермер хўжаликлари кооперацияси ва бозор инфратузилмалари ривожланишини бошқариш. Номзодлик диссертаияси, Ташкент.2009й
3. Кундиус В. А. Формирование кластеров на селе базис инновационного развития агропромышленного производства // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2012. № 2. С. 56–60

EFFECTIVE PERSONNEL MANAGEMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Zanabitdinov Sanjarbek Vladimirovich
Andijan Mechanical building Institute "Economics"
1st stage graduate student

Abstract: This article presents opinions on the issues of effective personnel management in industrial enterprises.
Key words: industrial enterprise, personnel, efficiency, labor productivity, scientific management.

One of the most important factors is that companies focus on their personnel in the conditions of globalization. Systematic application of personnel management functions is the way to economic stability. Because the mood of the business is proportional to the mood of the staff. Therefore, providing the right motivation to personnel is one of the most important tasks in ensuring the organizational and socio-economic stability of enterprises. Currently, in the conditions of effective economic reforms implemented in our Republic, it remains clear that the basis of the success of enterprises is to constantly increase the attention to human resources. The experience of developed countries is a clear proof of this. The process of effective management of employees in enterprises is directly related to the function of motivation. Therefore, in terms of influencing personnel, motivation and the theoretical justification of the ways of influencing personnel through it are important. Personnel management activity and motivational factors affecting it have been constantly in the focus of attention of economists.

As the world progresses, it is necessary to improve the motivational system of influencing employees. Motive is seen as a factor, an incentive to fulfill a certain goal